

YUSUFJON QIZIQ SHAKARJONOV

Olimjonova Zarnigor Shokirjon qizi

Najmiddinova Sarvara Samariddinovna

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining

Farg'ona mintaqaviy filiali Qo'g'irchoq teatr aktyorligi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Quyidagi maqolada o'zbek an'anaviy teatrining yirik namoyondasi, raqs san'ati ustasi, O'zbekiston xalq artisti Yusufjon qiziq Shakarjonov haqida so'z yuritiladi. Uning san'at sohasi rivoji uchun qilgan mehnatlari haqida va u mehnatlar bosib o'tilgan yo'llar haqida so'zlanadi.

Kalit so'zlar: to'da, qo'qonlik, qiziqchi, teatr, san'at, butun, ta'lim, qator, mamlakatlar, jahongashta, tufayli, ijro, komediya, sirk, balet, milliy, to'y, bayram, raqqoslik, sayyor, piyonista, spektakl, konsert.

San'at sohasining, aynan teatr sohasining rivoji uchun eng ko'p harakat qilgan, eng ko'p ter to'kkan, tarixning eng serqirra ijodkorlaridan biri bo'lgan, o'zbek teatrining eng yirik namoyandalaridan biri, raqs san'ati ustasi, O'zbekiston xalq artisti Yusufjon qiziq Shakarjonovdir. O'z sohasining haqiqiy fidokori sanalmish bu inson san'at sohasi yo'lida juda ham ko'p va juda ham katta ishlarni amalga oshirgan insondir. Yusufjon qiziq Shakarjonov 1869-yil Marg'ilon shahrida tavallud topgan, 1953-yilda vafot etgan. O'zbek an'anaviy teatrining yirik namoyondasi, raqs san'ati ustasi. O'zbekiston xalq artisti (1941-yil). 1881—1988-yillarda Zokirjon qiziq boshliq qo'qonlik qiziqchilar to'dasida bevosita Sa'di Maxsumdan ta'lim oladi. 1888—1992-yillarda to'da bilan butun Farg'ona vodiysini aylanib chiqadi. Ora-chora "Chodir xayol" qo'g'irchoq teatrida korfarmon bo'lib ishlaydi, xalq to'ylari, sayillarida, xorijdan kelgan sirk uyushmalari tarkibida qiziqchilik tomoshalari ko'rsatadi. Muqallidda, hajviy, bo'rtirma obraz yaratishda, kulki hikoyada, askiyada Yusufjon qiziq Shakarjonovga bas

keladigani bo'lmagan. To'ralarda korfarmonlik qilgan, bilganlarini yosh qiziqchi va raqqoslarga o'rgatgan. Yusufjon qiziqning jahongashtaligi tufayli Farg'ona qiziqchiligi bir qator mamlakatlarda namoyish etilgan. 1903-yilda u Said qissaxonga qo'shilib, Buxoroga boradi. 1904-yilda Toshkentda Mullaboy Mansurov sirkida Ortiq qiziq, Sobir qori, Qodir qiziq, Karim Zaripovlar bilan birga Samarqand, Farg'ona vodiysida, so'ngra Turkiston, Avliyo ota, Pishpakda bo'lib, o'zbek qiziqchiligi, xalq raqslarini namoyish etadi. 1905-yilda shu truppa tarkibida Qashqarda "Kelin tushirdi", "Mamayusuf", "Bola o'qitish", "Surat ko'rsatish", "Shayton", "O'lik sotdi" kabi komediyalarni ijro etishda rahbarlik qiladi. 1906-yil Marg'ilonda qiziqchilar to'dasini tuzadi. 1908-yil Yusufjon qiziq Shakarjonov to'dasi (36 kishidan iborat) Farg'ona shahrida tashkil etilgan o'ziga xos ko'riktanlovda qatnashadi. O'sha yili Yusufjon qiziq Shakarjonov Abdurahmon Rahmonov (1870—1929) sirk uyushmasi bilan Buxoroga boradi. 1909-yil Sankt-Peterburgga kelib rus baletini ko'radi, sirkda kloun Anatoliy Durov bilan tanishadi. Yusufjon qiziq Shakarjonov 1908—1914 yillarda Filipp Yupatovning Andijon va Toshkentdagi chodir sirkida Ashir qiziq, Nazir qiziq bilan qiziqchilik qilgan. 1914-yil Rahmon Abduxalilovning milliy sirk uyushmasida Ortiq qiziq, Sobir qori, Muhammad chaqqon, Qodir qiziq bilan birgalikda "Pul qistash", "Qalandarlik", "Sarkorlik" komediyalarini ijro etgan. Jadidlar ta'sirida g'arb uslubidagi yangi teatrga qiziqib, "Bola o'qitish", "Mudarris" singari an'anaviy komediyalarni qayta ishlab, to'y va bayramlarda namoyish etadi. 1918-yil Marg'ilonda qiziqchilar to'dasini yangitdan tuzadi. Unda Usmonqori Rayimbekov, Sulaymon Mirzarahimov degan qiziqchilar, Mamatbuva xofiz, Xudoybergan hofiz, Otaxo'ja raqqos, doirachi Usta Olim Komilovlar faoliyat qo'rsatishgan. Otaxo'ja raqqos bilan "Kema o'yin"ni tiklaydi. Tamaraxonimga o'zbek lapar va raqslarini o'rgatadi. 1920-yil Yusufjon qiziq Shakarjonov to'dasi targ'ibot poyezdida xizmat qiladi. 1921-yil Farg'ona o'lka sayyor teatr truppasi tarkibida Buxoro viloyatida bo'lib, "Tuhmatchilar jazosi" (Hamza) spektaklida Sulton piyonista rolini ijro etadi, konsertlarda qiziqchilik qiladi. 1926—1928-yillar Yusufjon qiziq Shakarjonov Muhiddin Qoriyoqubov rahbarligidagi O'zbek davlat etnografik ansamblda qiziqchi,

cholg'uchi, o'yinchi sifatida faoliyat ko'rsatgan, yoshlarga xalq raqs va laparlarini o'rgatgan. "Qari navo", "Sarboz", "Kema o'yin" raqslarini sahnalashtirishda qatnashgan. Shu davrda Cho'lpon bilan ham hamkorlik qilib, 1927-yilda Moskva o'zbek drama studiyasida uning asari asosida "Yana uylanaman" komediyasini sahnalashtirishga hissa qo'shgan. 1930-yil bir guruh xalq ijodkorlari bilan Moskvada bo'lib o'tgan san'at olimpiadasida ishtirok etgan. "Zarkokil", "To'rt jinni", "Kelin tushirdi", "Mardikor — novvoylik", "Mozor", "Yelpib o'tirish", "Qalandarlik", "Attorlik" kabi qadimiy xalq komediyalarini tiklaydi, namoyish etadi, boshqarib boradi. Ikkinchi jahon urushi yillari Yangiyo'l teatrida (1941—1942), O'zbek davlat sirkida (1942—1944) ishlaydi. Urushdan keyingi yillar xalq bayram va to'ylarida xizmat qiladi. "Qo'shiqlar parvoz etadi" filmkonsertda bosh rolni o'ynaydi. Mustamlaka va sobiq sovet davrida og'zaki ijod qilish, odil va rost so'zni aytish, mansabdor ustidan kulish, tanqid qilish qanchalik og'ir va xavfli bo'lmasin, qiziqchilik va askiya merosini avlodlar uchun saqlab qolish, yangi sharoitlarda tiklash va rivojlantirishda jonbozlik ko'rsatdi. Yusufjon qiziq Shakarjonov an'analarini o'g'illari Zaynobiddin va Madaminjon Yusupovlar, Muhiddin Darveshov va boshqalar qiziqchi va askiyachilar davom ettirdilar. A. Muxtorning "Zar qadrini...", A. Abug'afurovning "Kulgi zarbi" pyesalari Yusufjon qiziq Shakarjonov hayoti va ijodiga bag'ishlangan. Farg'ona viloyati musiqali drama teatriga Yusufjon qiziq Shakarjonov Shakarjonov nomi berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sahna ma'naviyati (SH. Rizayev)
2. Sahna nutqi (U. Boltaboyeva)
3. Qo'g'irchoq teatr tarixi (M. Qodirov, S. Qodirova)
4. Qo'g'irchoq boshqarish asoslari (D.D.Abdullayev, L.D.Usmanova)
5. Teatr tarixi
6. Aktyorlik Mahorati (R. O'tganov)

Foydalanilgan web-saytlar:

1. Tafakkur.net
2. Ziyouz.com sayti
3. Qomus.info sayti
4. Saviya.uz sayti
5. Shosh.uz sayti